

ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil mart

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 3 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 25,2 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,8 foizga ko'payishiga olib keldi.

2018 yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (17.4 foiz), Shayxontohur (14.6 foiz), Uchtepa (13.4 foiz) Bektemir (12.2 foiz), va Yunusobod (10.8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2,4 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (8,6 mln. so'm), Yakkasaroy tumani (5,4 mln. so'm) Sergeli (4,9 mln. so'm)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming. so'm | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|------------------------|---------------|---|
| Toshkent shahri | 2396,2 | 101,7 |
| tumanlar: | | |
| Uchtepa | 2751,2 | 104,2 |
| Bektemir | 8604,6 | 106,6 |
| Yunusobod | 990,0 | 101,6 |
| Mirzo Ulug'bek | 955,6 | 111,4 |
| Mirobod | 2384,5 | 101,0 |
| Shayxontoxur | 2394,9 | 106,5 |
| Olmazor | 2915,3 | 101,4 |
| Sergeli | 4893,0 | 105,6 |
| Yakkasaroy | 5420,1 | 102,1 |
| Yashnabod | 1362,1 | 109,3 |
| Chilonzor | 1573,7 | 106,4 |

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 foizga kamaydi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 74,8 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 3024,8 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 68,3 foizni tashkil etdi.

